

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY nomidagi
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
TARIX FAKUL'TETI
O'ZBEKISTON TARIXI KAFEDRASI
O'ZBEKISTON TARIXI FANIDAN

Mavzu: IX – XII asrlarda O`rta Osiyoda madaniy hayot.

REFERAT

Bajardi:

Shomirzayeva Yulduz

Tekshirdi :

Qo'shbaqov H.A.

Samarqand- 2014

Reja:

Kirish

1. IX-XII asrlarda ilm-fan rivojiga sabab bo'lgan tarixiy omillar.
2. Al-Ma'mun. "Bayt ul-Hikma" akademiyasida faoliyat yuritgan hamyurtlarimiz.
3. "Xorazm Ma'mun akademiyasi" va uning jahon ilm-fan rivojiga qo'shgan hisssasi.
4. Hadis va fiqh ilmi. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Burhoniddin Marg'inoniy, Moturudiy.

Xulosa

Kirish

Arablar Xuroson, Movoraunnaxr va Xorazimni bosib olgach, xamma yerda bo'lgani kabi o'lkamida xam qattiqqo'llik bilan yurtni arablashtirish siyosati olib bordilar. Buborada islom dini, Qur'oni karim ustalik bilan foydalanildi. O'lkada islom dini bilan birga qatorda arab tili davlat tili, islom dini tili va fan tili darajasiga ko'tarildi. Maxalliy tilda yozilgan asarlar yo'q qilindi, yerli bilimdonlar quvg'in ostiga olindi. Arab tilini, islom dini Quroni karimni yaxshi bilgan shaxslarning jamiyatdagi o'rni, nufuzi oshdi. Natijada ham xatto o'z ona tiliga nisbatan arab tilini yaxshi bilgan tolibi ilmlar brogan sayin ko'payib bordilar. Arab tili va islom dini bo'yicha mukammal bilim va malakaga ega bo'lganlar arab xalifaligining markaziy shaxarlariga borib o'qishni odat tusiga, an'anaga aylantirdilar. Damashq, Qoxira, Bag'dod, Kufa, Basra va boshqa shuning singari katta shaxarlarda Movoraunnaxr va Xorazimdan borib fan, madaniyat tarqqiyotiga o'z xissasini qo'shgan avlod-ajdodlarimiz soni borgan sayin ko'payib bordi. Xususan, bu borada Bag'dod shaxri Sharqning ilm-marifat marzi sifatida katta axamiyat kasb etdi. IX asrdabu shaxarda „Bayt-ul-xikmat“ („Donishmandlar uyi“) - Sharqning fanlar akademiyasi tashkil etildi. Xuddi shunga monand X asr oxirlarida Xorazimdan podsho Ma'mun ibn Ma'mun davri (995-997) da („Donishmandlar uyi“) tashkil etildi. Urganch tashkil etilgan bu „Bayt-ul-xikmat“ -, „Ma'mun akademiyasi“ (Xorazim akademiyasi) deb nomlanadi. Bag'dod va Urganchdagi „Donishmandlar uni“da o'z vaqtida nomlari dunyoda mashxur ulug' alloma va mutafakkirlar taxsil ko'rganlar. Ular orasida Axmad Farg'oniy, Al Xorazmiy, Beruniy, ibn Sino, ibn al-Xammor, Abu Saxl Masixiy, ibn Iroq kabi ulug' va boshqa buyuk zotlarning nomlari bor.

1. IX-XII asrlarda ilm-fan rivojiga sabab tarixiy bo'lgan omillar.

Movoraunnaxr va Xorazimda IX-XII asrlarda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida yuz bergan ijobiy yutuqlar va mutaffakkirlar haqida gap ketganda, anashu yutuq va mutaffakkirlarning asosiy omili va sababchisi bo'lgan markazlashgan mustaqil davlatning vujudga kelganligini nazar-etibordan

qochirmasligimiz kerak, albatta. O'z mavqei va tutgan o'rni jixatidan xalqaro maydonda katta etibor va nufuzga ega bo'lgan Somoniylar, Qorahoniylar, G'aznaviylar – Tug'rulbek, Sulton Sanjar, Otsiz, Takash singari tadbirkor va uzoqni ko'ra oladigan davlat arboblari davrida har tomonlama rivojlanib, madaniy tarqiyotda moffaqiyatlarga erishdilar. Chunki bu xukumdorlar davrida mamlakat mustahkamlandi, nisbatan tinchlik, osoyishtalik va barqarorlik vujudga keldi. Natijada moddiy ishlab chiqarish rivoj tobdi, xunarmandchilik va savdo taraqqiy etdi, madaniyat gurkirab o'shdi. Bu davrda “Buyuk ipak yo'li” ning o'rni va ahamiyati oshdi, xunarmandchilik va savdo-sotiq rivoj topgan obod va ko'rkam shaxarlar vujudga keldi. Buni shundan ham bilish mumkin al-Muqaddasiyning yozishicha (985 yilda yozgan) 830-933 yillarda Xorazmda 13 shahar mavjud bo'lgan bo'lsa, yarim yildan so'ng shaharlar soni 33 taga yetgan. Bular: Kot, Gardmon, Oyxon, Orzaxiva, No'qfog', Mizdakxon, Jashira, Sadvor, Zardux, Borategin, Madmimiya (Jayxun daryosining o'ng sohilida), Jurjoniya, Raxushmison, Madanisan, Xiva, Kardaran, Hazorasp, Jigarband, Joz, Darg'on, Jit, Kichik Jurjoniya, ikkinchi Jit, Safdor, Nuzvor, Zamaxshar, Ruzun, Vazirmand, Vaskaxankas, Andarosgonlardir. Muqaddasiyning so'zlariga qaraganda, Xorazm axolisi aql-zakovatli, fikr ilimni egallagan marifatli kishilar bo'lganlar. Xalifalik shaharlarida fiqx, adabiyot, Quronni o'rganish sohasida shogirdi bo'lmagan xorazmlik imom (bu yerda yirik olim ma'nosida) kamdan-kam uchraydi. IX-XII asr ma'naviy hayotida islom dini muhim o'rin egallaydi. Bu davrda musulmon Sharqida keng tarqalib, jahon dini darajasigacha ko'tarilgan islom dini va shariat musulmon dunyosining mafkurasiga aylandi. Arab xalifaligining fotihlik siyosati natijasida o'zining barcha haq-huquqlaridan ajralib, madaniyati oyoq osti qilingan Movaraunnahr aholisi o'z e'tiqodi va xat savodidan mahrum bo'lib, islom dini qabul qilishga, shariiy ahkomlarini bajarishga, shunindek arab tili va yozuvini o'rganishga majbur bo'ldi. Ko'p vaqt o'tmay e'tiqodli xalq o'ziga yot bo'lgan arab imlosida xat-savod chiqarishga kirishdi. Movaraunnahr aholisining murakkab arab imlosini o'zlashtirib, xat-savodli bo'lishi uchun arabiy tilni mukammal o'rganib,

bu o'zga tilda asarlar yarata oladigan olim va mutaffakkirlarning yerli xalq orasida yetishib chiqishi uchun qariyb bir yarim asr, ya'ni besh avlodning umri sarf bo'ldi.

Shunday bo'lsa-da, bu davr buyuk allomalar bilan bir qatorda islom ta'limotining rivojiga ulkan hissa qo'shgan Imom al-Buxoriy, Iso Termiziy va Muxmud Zamahshriy kabi ulamolarni kamolotga yetkazdi.

Movaraunnahr va Xurosonda xalifalik hukmronligi tugatilib, mustaqil Somoniylar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar, G'aznaviylar va Xorazmshohlar davlati qaror topgach, islom ta'limoti, shariat ahkomlari va ilmu ma'rifatga yanada e'tibor kuchaydi. Markaziy shaharlarda qator masjid va madrasalar qad ko'tardi. Manbaralardan ma'lum bo'lishicha, dastlabki madrasa Buxoroda X asrda shaxarning Kovushdo'zlar timi yaqinida bino qilingan. U Farjak madrasasi deb yuritilgan. XII asrda bu esa Buxoroning Darvoza mahallasida hatto qonunshunoslar uchun maxsus "Faqihlar madrasasi" qurilgan. Bungay oliy dorilfunun asosan islom dini ta'limotining asosiy manbalari: Qur'oni Karim, Hadisi sharif va arab tilining mukammal o'rganishga katta e'tibor bergan. Shariat ahkomlari har tomonlama chuqur o'rgatishda "Tavsir"- Qur'oni Karimning sharhlari juda boy va qimmatli manba hisoblangan. Fiqh fani (islom huquqshunosligi) axloq va shariat ahkomlari borasida mukammal ma'lumot beradi.

Islom dini ta'limotining ravnaqi va targ'ibotining kengayishida, ayniqsa Buxoro shaxri markazga aylandi. Buxoro madrasalaridan juda ko'p yetuk fiqhshunos olimlar, odil qozilar, zohid imomlar yetishib chiqadi. Shu boisdan Buxoro IX asrdan boshlab "Qubbat ul-islom" –"Islom dinining gumbazi" nomi bilan shuhrat topadi.

Biroq hukmdor tabaqa mamlakatni idora qilishda imkoni boricha islom dinidan mafkuraviy qurol sifatida foydalanadi. Mafkuraning barcha sohalari islomga tobe qilinib, zardushtiylik e'tiqodi qoldiqlariga qarshi shavqatsiz kurash olib boriladi. Mehnatkash aholi ustidan zabr-zulm zo'rayib, har qanday hurfiylik ta'qib ostiga olinadi. Buning oqibatida zuhmatkash xalqning tashvish azobi ortib, hayoti g'oyat og'irlashdi.

2. Al-Ma`mun. “Bayt ul-Hikma” akademiyasida faoliyat yurutgan hamyurtlarimiz.

Kamdan- kam hukmdor al-Ma`munchalik davlatining eng gullab yashnagan chog`larida tahtga chiqqan. Bu davrda qudratli imperiyaning etaklari Hindistongacha yetib borardi. G`arbda esa Afrika sohillari bo`ylab Jabali – Toriqqacha cho`zilgandi. O`rta yer dengizida ham uning baquvvat floti hukmronlik qilardi. Bu yangi dunyoning poytaxti Bog`dod bo`lib, uning farmoishlari va buyuruqlari imperiyaning eng olis, eng ovloq hududlarida ham so`zsiz bajarilardi. Basra, Nishopur va Kufalar islomni qabul qilgan Osiyo mamlakatlari vakillarini o`z maktablarida o`qitib, chiqtirib berardi. Damashq esa hashamatga berilgan jamiki badnafslarga qimmatbaho matolar yetkazib berishga qurbi yetar va butun Ovro`pani po`lat shamshirlar bilan ta`minlashi mumkin edi. Shuning uchun arablar Muhammad alayhissalom aytgan jannatni yer yuzida barpo etishni o`ylab boshlagan edi. Ular suv quvurlari barpo etdilar, ajoyib qasrlar qurdilar keti-oxiri ko`rinmaydigan bepayon xurmozorlar o`stirdilar. Bu ulug` imperiya tengi yo`q Horun ar-Rashidning say-harakatlari yanada mustahkamlangan edi. U nafaqat faylasuf hukmdor, nafaqat iqtidorli siyosatchi, nafaqat sarkarda va nafaqat diniy baland ijodkor halifa edi. Horun ar-Rashid o`zining har yerda hozirligi bilan amaldorlarning yuragiga hadik solib qo`ygan edi va shuning uchun uning farmoishlari so`zsiz bajarilar, davlatning ma`muriy hayotining oqimi tezlashar edi. Odatda har qaysi ozi mustabid va hokimi mutlaq bo`lishga intiladigan mahalliy hokimlar va amirlar ziyraklik bilan hamma narsani ko`rsatadigan, kiyimini o`zgartirib olib, mamlakat kekadigan halifadan qo`rqishardi va shu sababdan Horun ar-Rashidning hukmdorligi qonunlarsiz ham qatiy va muayyan tarzda amalga oshardi. Al-Ma`mun taxtga chiqqanda davlatning axvoli ana shunday edi. Vizantiya Al-Ma`munni qalblarga harorat baxsh etuvchi ilmlarning sahiy homiysi deb ataydi. Tarix Al-Ma`munni nomini insoniyatning saxovatli, oliyanob siymolari qatoriga qo`yadi. U siyosiy davlatni san'atlar davlatiga aylantirishni niyat qilgan hukmdor edi, bardoshli va sabr-toqatli, har narsani chidam bilan uzoq o`rganish qobiliyatiga ega edi. U ilm-fanga tubsiz sadoqat bilan berilgandi. Al-

Ma'mun bor imkoniyatlarini ishga solib shu paytga qadar arablarga yod bo'lgan yunon dunyosini o'z davlatiga olib kirishiga urundi. Bog'dod o'sha paytdagi yetuk olimlarning hammasiga do'stona quchoqlarini ochdi. Qanday unvon egasi ekanidan qa'tiy nazar, qaysi dinga mansubligiga qaramay har qancha ziddiyatli qarashlarga ega bo'lmasin har bir odam uchun xalifaning mehr muruvati keng ochiq edi.

Al-Ma'munning bu say- harakatlari orqali Farg'oniy va Xorazmiylar "Bayt ul-Hikma" akademiyasida juda ko'plab ilmiy tadqiqotlarni olib bordilar. Ko'plab asarlar yozdilar. Bu asarlar esa G'arb Universitetlarida algebra, astronomiya kabi fanlardan o'quv qo'llanma sifatida ham foydalanildi va bu asarlarni tadqiq etish orqali ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Al-Ma'mun bu darajadagi ishlari bilan Sharq ilm fan taraqqiyotiga tamal toshini qo'ydi desak hech mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

Muso Al-Xorazmiy (783-850).

To'liq nomi Abu Abdulloh Muhammad Ibn Muso al-Xorazmiy al-Majusiy bo'lib, matematik bilimlar taraqqiyotida o'chmas iz qoldirgan buyuk alloma. Xorazmiy dastlabki bilimlarini Xorazmda olgan. Otasi saroy a'yonlaridan bo'lganligi, Xalifa Horun ar-Rashid (hukmronlik davri 786-809 yil) ning o'g'li Ma'munning (802-805 yil) noib etib ta'yinlanganligi va o'ziga tengdosh Xorazmiyni yaqin safdoshlari safiga qo'shganligi bo'lajak olimning keying taqdirida hal qiluvchi rol o'ynaydi. 805 yilda Ma'munning Bog'dod xalifaligining eng qudratli o'lkasi bo'lgan Xurosonga hokim etib ta'yinlanishi (poytaxti Marv shahri) Xorazmiyning hayotida muhim davrlar edi.

Ma'mun Bog'dodda "Bayt ul-Hikma"ga asos solib o'z davrining yetuk olimlari, tarjomonlari, olimu fuzalolariga homiylik qila boshladi. "Bayt ul-Hikma"ga do'sti Xorazmiyni boshliq qilib ta'yinladi. Xorazmiy bu lovozimda umrining oxirigacha faoliyat olib bordi. Olimga dastlabki buyuk shuxratni "Hisob al-hind" ("Hind hisobi") nomli risolasi olib keldi. Mazkur risolada jahon fani tarixida birinchi marta o'nlik pozitsion sistemasi va uning amaliy ahamiyati borasida so'z bordi. Xorazmiyning o'nlik pozitsion sistemasi insoniyatga cheksiz

qulay imkoniyatlarni olib keldi. Agar mazkur sanoq sistemasi bo'lmaganida ilmiy tafakkur bu darajada kamol topishi amri-mahol bo'lardi. Xorazmiy to'qqiz belgidan iborat hind raqami yordamida cheksiz miqdorlarni qayd etuvchi va uni osonlik bilan ifodalovchi sanoq sistemasini kashf etdi. Hindlarning to'qqiz belgidan iborat raqamlar tizimi mukammal sanoq tizimiga aylanishi uchun "0" ("shifr") kashf etilib o'z o'rniga qo'yilishi kerak edi. Xorazmiy tomonidan "0" (nulsifr) ning kashf etilishi insoniyat ilmiy takakkurining beqiyos ulkan yutuqlaridan biridir. Xorazmiy tomonidan yozilgan "Hisob al-Hind" kitobida eng muhim oltita arifmetik amallar qo'shish, ayirish, ko'paytirish, bo'lish, darajaga ko'tarish va kvadrat ildiz chiqarish kabilar ishlab chiqilgan va ularning uslub hamda qonuniyatlari kashf etilgan edi. Xorazmiyning yan bir buyuk hizmati algebra fanini kashf etganidir. Algebraning mustaqil fan sifatida vujudga kelishi va rivojlanishida bevozita Xorazmiy faoliyati bilan bog'liq "Algebra" atamasining o'zi Xorazmiy tomonidan yozilgan "Al kitob va muhtasar fi hisob al-jabr val muqobala" ("Al-jabr va al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob") nomli risoladagi "Al-jabr" so'zning lotincha talaffuz ifodasidan kelib chiqqan. Bu asar bir necha o'nlab lotin va boshqa Yevropa tillariga tarjima qilingan. Algoritmlar nazariyasini ham Xorazmiy nomi bilan bog'langanligi hatto "Algoritm" atamasi ham lotinchada ifoda etilgan "Dixi Algoiretmuk" ("dediki al- Xorazmiy") so'zidan kelib chiqqanligini hech kim inkor eta olmaydi. "Algoritm" tushunchasi hozirgi zamon kibernetika, EHM va hozirgi zamon information texnologiya va jarayonlarning asosiy kategoriyasiga aylandi. Xorazmiyning jug'rofiya, tarix, astronomiya, fanlari sohalari bo'yicha qilgan hizmatlari beqiyos. Xalifa Ma'mun olimlar oldiga Osmon va yerning to'liq xaritasini tuzushni vazifa qilib belgilagan. Xorazmiy bu ishlarga bevosita rahbarlik qilgan. Xaritalar "Majmui al-Ma'mun", "Dunyo xaritasi" nomi bilan yurutilgan va u 840 yillar atrofida nihoyasiga yetkazilgan. Shu munosabat bilan Xorazmiy jug'rofiyaga oid "Kitobi surat al-arz" nomli asar yaratgan. Bu asarning yagona nushasi qo'lyozma tarzida Qohiradan topilgan. Ba'zi manbaalarda ko'rsatilgan 22 xaritadan faqat 4 tasi yetib kelgan. Xorazmiy yer yuzini "Avesto" ta'limoti bo'yicha 7 iqlimga bo'lib o'rganishni

tavsiya qiladi. Xorazmiyning yulduzlar jadvali fanda “Ziji Xorazmiy” deb yuritiladi. Mazkur jadvalning tahminan uchdan biri al-Fargʻoniy zijida toʻliq berilgan boʻlib, Fargʻoniyning asarlari orqali keng tarqalgan. Uning tarixga oid asarlari, xususan “Xorazmiyning mashhur kishilari” nomli asar yozganligi va bu asardan Beruniy 4 ta koʻchirma olganligi maʼlum. Xorazmiy oʻrta asrlarda yetishgan oʻzbek madaniyati klassigi, oʻzbek faning ilk tamal toshini qoʻygan buyuk ajdodlarimizdan biridir. “Xorazmiy oʻz asarlari bilan Sharq keyinroq Yevropaning riyoziyat ilmiga asos soldi” (S.Tolstov). Amerikalik mashhur shiqshunos olim D.Sarton “Xorazmiy barcha zamonlarda ulugʻ matematiklardan biridir... Jahon fani tarixining IX asrlar birinchi yarmini hech mubolagʻasiz Xorazmiy zamonini deb atashimiz lozim”,- degan edi.

AXMAD FARGʻONIY (861-yilda vafot etgan).

Saxovati keng ona tuprogʻimiz, Oʻzbekiston nomini faxr va gʻurur his-tuygʻusi bilan uzoq-uzoq avlodlarga koʻz-koʻz qilishga arzigulik ulugʻ siymo va allomalardan biri Axmad Fargʻoniydir. Asli kindik qoni Fargʻonada tomgan va IX asrda yashab ijod etgan vatandoshimiz haqida maʼlumot beruvchi tarjima hujjatlar deyarli yoʻq darajada. Axmad Fargʻoniy filolog olim Aziz Qayumovning (“Axmad al-Fargʻoniy” –T.: Fan, 1990) maʼlumotlariga qaraganda yoshlikdan fanga, ilm olishga chanqoq boʻlib oʻsgan. U asosan tabiiy fanlar: falakiyotshunoslik, matematika, geografiya kabi fanlar boʻyicha ijod qilgan. Axmad Farogʻiyni ijodiy faoliyati Bagʻdod bilan, ulugʻ mutafakkir olim Muhammad Ibn Muso al-Xorazmiy raxbarligida faoliyat koʻrsatgan “Baytul Hikma” bilan bogʻliqdir. U arab atamashunosligining paydo boʻlishi va ilmiy taraqqiyotiga munosib hissa qoʻshdi. Bagʻdod va Damashqdagi rasadhonalar qurilishiga shaxsan qatnashdi. Bagʻdodning Raqqoq nomi bilan ataluvchi mavzesida qurilgan Rasadxona qoshida tashkil etilgan falakiyotshunoslik maktabiga raxbarlik qildi. Axmad Fargʻoniy zamondosh, kasbdosh olimlar va shogirdlar bilan hamkorlikda Ptolemey “Yulduzlar jadvali” dagi malumotlarni tekshirish ishlarini olib bordi. Uning falakiyotshunoslikka oid ilmiy-tadqiqot ishlari ijodiy samaralar berdi. Taniqli olim Omonulla Fayzullaev (“Axmad al-Fargʻoniy”// Fan va turmush, 1992, – №9-10)

ma'lumotlariga qaraganda Axmad Farg'oniyning oltita kitobi dunyoga ma'lum va mashxurdir. "Kitob Fi Usul ilm an-nujum" ("Falakiyot ilmining usullari haqida kitob"). Bu risolaning asl qo'lyozmalari matni bir xil bo'lsa-da, besh nom ostida saqlanadi. Ya'ni Almajistiya bag'ishlangan "Falakiyot risolasi", "Falak sferalari sababiyati", "Al-Majistiya" (Ptolemeyning "Almagest" asari), "Ilm al-xaya" ("Falakiyot ilm") deb ataladi. Bu nodir qo'lyozmalar Angliya, Fransiya, Aqsh, Marokash, Misr va Sank-Peterburgda saqlanmoqda.

Olimning "Al-Farg'oniy jadvallari" (qo'lyozmasi), "Usturlob bilan amal qilish haqidagi kitob" Xindistonda, "Oy, Yerning ustida va ostida bo'lganida vaqtni aniqlash risolasi"ning qo'lyozmasi Qoxirada, "Yetti iqlim xidi" asarining qo'lyozmasi Olmoniyada, "Usturlob yasash haqidagi kitob" qo'lyozmasining to'rtta nusxasi Berlin va Parijdadir.

Axmad Farg'oniy bu asarlaridagi ilmiy kashfiyotlari bilan jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga ulkan va munosib xissa qo'shdi. Xususan, uning 812-yilda Quyosh tutilishini oldindan bashorat qilishi, Yerning dumaloq shar shaklida ekanligini ochganligi olimga shuhrat keltirdi. Keyinroq Misrda yashagan chog'ida Nil daryosi suvini o'lchaydigan asbob yasagan. Bu asbob tutash idishlar qoidasiga asoslangan bo'lib, xozircha saqlanadi. Axmad Farog'iyning falakiyotga oid yirik ilmiy asarlaridan biri "Samoviy harakatlar va yulduzlar fanining majmuasi haqida kitob" dir. Bu asar "Astronomiya negizlari" deb ham yuritiladi. Unda buyuk mutafakkir o'zi yashagan davrdagi falakiyotga oid bilimlarni tartibga soldi. O'zining yangi xulosa va natijalari bilan boyitdi. Falakiyot ilmiga oid asboblarni, Quyosh soatlarining bayonini berdi. O'sha davr an'anasiga muvofiq, mamlakatlarni yeti iqlimga bo'lib o'rgandi, joylarning geografiyasiga oid koordinatalarini Sharqdan G'arbga yo'nalishda berdi.

Olimning stereografik proeksiyalar nazariyasini undan ming yil keyin buyuk matematik Eyler XVIII asrda geografiyaga oid xaritalar tuzish nazariyasiga tatbiq qildi va "Katta geografik xarita"ni tuzishda ishlatdi. Undan tashqari kompleks o'zgaruvchan miqdorlar teksligi, noevklid geometriyalar, Lobachevskiy

tekisligining Beltrami-Kleyn proeksiyasi kosmografiyalarning zaminida ham Axmad Farg'oniyni shu nazariyasi yotadi .

Axmad Farg'oniyni bajargan ilmiy tadqiqot natijalari qaysi fan sohasida bo'lishidan qati nazar g'oyatda pishiq, puxta va nixoyatda mukammal bo'lgan. Shu boisdan uning asarlari fan olamida shuhrat topgan. XII asrdayoq alloma asarlarining lotin tiliga tarjima qilinishi va butun Evropaga tarqalishi bu fikrimizning isbotidir:

Yevropa ilmiy muxiti farg'onalik allomaga katta hurmat bajo keltirgan. Yevropaliklar Axmad Farg'oniyni o'zlaricha talaffuz etib, “Al Fraganus” deb ataganlar. Xatto bu nomni buyuk Dante ham extirom ila tilga olgan. Axmad Farg'oniyni asarlari lotin, olmon, ingliz, fransuz, rus va boshqa tillarga tarjima qilingan. Uning boy ijodiy me'rosini o'rganish va chop etish, buyuk vatandoshimiz to'g'risida ilmiy, tarixiy, badiiy asarlar va filmlar yaratish O'zbekistondagi barcha davlat va jamoat tashkilotlarining vatanparvarlik burchidir.

Abbos Axmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg'oniyni – xech shubxasiz jahon fani taraqqiyotiga buyuk xissa qo'shgan olimdir. Uning fandagi xizmati o'n asr davomida bugungi kunimizga qaraganda ma'lum va mashxurroq bo'lib kelgan edi. Masalan, Yevropa uyg'onish davrining dastlabki namoyandalardan Dante Aligeri (1265-1321) al-Farg'oniyni “Astronomiya asoslari xaqida kitob” asarining lotincha tarjimasini mutolaa qilgan. Xolbuki, Dante matematik xam bo'lgan emas.

Shu bilan birga qayd etish lozimki, so'nggi asrda Axmad al-Farg'oniyni fan tarixidagi xizmatlari yetarlicha yoritilmasdan, xatto tilga olinmasdan va shu nuqtai nazardan kamsitilib kelish xollariga yo'liqamiz. Masalan, Oyda al-Farg'oniyni nomida krater borligi rus tilida yoki Sovet Ittifoqi davrida nash etilgan biror qomusda qayd etilmagan. U eng buyuk astronomlardan biri bo'lganligiga qaramay, astronomiya darsliklarida nomi deyarli tilga olinmagan. Taassufki, bu adolatsizlik xatto astronomiya tarixiga bag'ishlangan kitoblarda xam uchraydi.

Shu bois O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 27 niyabrdagi “Ahmad al-Farg'oniyni tavalludining 1200 yilligini nishonlash

to'g'risidagi qarori" milliy qadryatlarni targ'ib qilish uchun muhim bo'lishi bilan birga ,tarixiy adolatni tiklash nuqtai nazaridan ham g'oyat xayrlidir. Bu qaror munosabati bilan Respublikamizning olimlari va tarixchi mutaxassislari Al-Farg'oniy xaqida ko'plab maqolalar e'lon qila boshladilar. Avval nashr qilingan A.Nosirov va X.Xikmatullayev, akademik A.Qayumov kitoblari uning xayoti va faoliyati yashagan davridagi muhit haqida yaxshi malumot beradi. So'nggi paytda bu mavzularda ko'plab maqolalar elon qilinmoqda, ilmiy anjumanlar o'tkazilmoqda.

Al-Ma'mun va uning otasi Horun ar-Rashid tufayli IX asrda Arab xalifaligida olib borilgan siyosat bu davrda ilm fan rivojlanishiga zamin yaratdi.Al-Ma'mun tomonidan Bog'doddagi ochilgan "Bayt ul-Hikma" akademiyasi esa jahon ilm fan tarqqiyotiga munosib hissa qo'shdi. Bu akademiyada ish olib borgan olimlarning esa ko'pchiligi aynan vatandoshimiz ekanligi esa bizga yuksak g'urur va iftixor bag'ishlaydi. Hozirgi kunda mamlakatimizda bu allomalar nomini abadiylashtirish yo'lida ko'plab ishlar olib borilmoqda. Misrda poytaxti Qohirada esa vatandoshimiz Ahmad al-Farg'oniy (nilometr asbobini yartganligi uchun) nomiga haykal bunyod etilganligi esa bu allomalarimizda faqat O'zbekistonda emas balki butun dunyoda munosib qadrlanayotganligidan nishonadir. Biz yoshlar esa mana shu allomalarimiz bilan faxrlangan holda ularga munosib izdosh bo'lishimiz kerak.

3. "Xorazm Ma'mun akademiyasi" va uning jahon ilm-fan rivojiga qo'shgan hissasi.

Xorazm Ma'mun akademiyasi XI asrda Xorazmshoh Abu Abbos Ma'mun II tashabbusi bilan Xorazm poytaxti Gurganchda (Quy i Urganch) Abu RAYhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Sahl al-Masihiy,Abu Nasr Ibn Iroq, tabib Abu Hasan Hammor, tarixchi Ibn Mishavayx kabi mashhur mutaffakkir olimlarning bevosita maslahatlari asosida "Dorul-Hikma va marifa" nomi bilan tashkil etilgan yirik ilmiy maskan. 1017 yilga qadar faolliyat yurutgan. Ushbu ilmiy maskanda davrining dolzarb muammolari ustida ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xorazm Ma'mun akademiyasi O'rta Osiyoda xususan yurtimizda shakillangan ilmiy-

ma`rifiy an`analarni yanada rivojlantiradi va dunyo fani rivojlanishida muhim o`rin egalladi. “Dorul hikma va marifa” olimlarining faoliyati jahonning ko`plab olimlari va shrqshunoslarida qiziqish uyg`otgan edi. Yevropalik Eduard Zaxayu, rus sharqshunoslari akademik S.P.Tolstov, I.Y.Krachkovskiy, A.Y.Yakubovskiy, P.G. Bulgakov, A.M.Belinintskiy, A.A.Semyonov, o`zbek olimlari Y.G`ulomov, I.Muminov, M.Xayrullayev, A.Ahmedov va boshqa tadqiqotchilar o`z tadqiqotlarida bu ilmiy maskan faoliyatini chuqur o`rganib, uning o`sha davr akademiyasi sifatidagi ahamiyatini asoslab beradilar. Bugungi kunda bu akademiya “Ma`mun akademiyasi” deb yuritiladi. Qadimgi va O`rta asrlarda Jahonda 4 ta akademiya mavjud bo`lganligi qayd etiladi. Bular Platon (Aflotun) akademiyasi (mil. avv. IV asr), Bog`dod shahrida “Bayt ul-Hikma” (IX asr), 1004-1017 yillarda Jurjoniya (Ko`hna Urganch) da Ma`mun akademiyasi va oradan besh asr o`tib, Samarqandda Mirzo Ulug`bek ta`sis etgan akademiyalardir. Shu 4 akademiya aynan 3 tasi O`rta Osiyoliklarga bog`liq ekabnligi ham o`sha davrlarda yurtimiz madaniyati naqadar yuksalganligini ko`rsatib turibdi. Ma`rifatparvar hukmdor Abu Abbas Ma`mun II madaniy-marifiy ishlarning rivojlanishi uchun bor kuchini ishga soladi. Saroyda kutubxona qurilib, Sharqning turli turli shaharlaridan noyob qo`lyozmalar keltiriladi. Saroyda qurilgan madrasada esa qobiliyatli yoshlarga diniy va dunyoviy ilmlar o`rgatilidi. Aynan shu davrda Xorazmda ilmiy fikr o`zining yuqori cho`qqisiga erishadi. Xorazmshoh Abu Abbas Ma`mun II Abu Rayhon Beruniyni o`zining bosh maslahatchisi etib tayinlaydi. Chet ellar bilan diplomatik aloqalarni boshqarishni unga topshiradi. Bu davrda Ma`mun tomonidan Sharqdagi eng yirik madaniy markaz “Dorul hikma va ma`rifa” yoki Xorazm Ma`mun akademiyasi tashkil etiladi. Beruniy esa ushbu ilmiy maskanga rahbar etib tayinlanadi. Sharqning turli davlatlariga taniqli olimlarni markazga taklif qilib choparlar yuboriladi. Xorazmliklardan tashqari Xorazm Ma`mun akademiyasida yuzdan ortiq olimlar, huquqshunoslar, adabiyotchilar va din peshvolari faoliyat ko`rsatar edilar. Ular Buxoro, Samarqand, Jand, Marv, Nishopur, Balx, Eron, Iroq, Hindiston, Suriya, Misr va boshqa mamlakatlardan kelgan edilar. Xorazmshohlar sulolasining o`sha davrdagi vakillari ilm-ma`rifatning bahosini bilar edilar. Ular

olimlarga rahnamolik ko`rsatar, faoliyatlari uchun barcha sharoitlarni yaratib berar edilar. Xorazm Ma`mun akademiyasining shakillanishi va rivojlanishi uchun mahalliy ilm fan yutuqlari bilan bog`liq omillardan tashqari, qadimgi grek olimlarining ishlari hamda bizning buyuk ajdodlarimiz Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg`oniy, Ahmad al-Marvaziy, Abbos al-Javhariylarning ilmiy yutuqlari ham katta rol o`ynaydi. Ushbu olimlar IX asrda Bog`doddagi “Bayt ul-Hikma” da faoliyat yuritganlar, ularning ma`naviy me`rosi butun dunyoga mashhur bo`lgan. Xorazm Ma`mun akademiyasi olimlarining ilmiy ishlari ular ilmiy merosini mantiqiy davom ettirgan, boyitgan va rivojlantirishga hissa qo`shgan. Shuni alohida ta`kidlash joizki, X-XV asrlar davomida dunyoning biror mamlakatida “Ma`jlisi ulamo va orifin” kabi ilm fan markazi bo`lgan emas. Bu tabarruk markazda 21 alloma va 40 dan ziyod toliblar ilm fanning turli yo`nalishlari bo`yicha qator izlanishlar olib borib, o`z faoliyatlari bilan jahon fani rivojiiga munosib hissa qo`shganlar. Bunda Xorazmshoh Abu Abbos MA`mun II ning katta e`tibori ham muhim ahamiyat kasb etgan. Masalan Abu Fazl Bayhaqiyning “Tarixi Ma`sud” (Masudlar tarixi), kitobida Abu Rayhon Beruniyning “Mashohiri Xorazm” (“Xorazmning mashhur kishilari”) nomli asaridan parchalar keltirilgan bo`lib, bunda Beruniy xorazmshoh Abu Abbos Ma`mun II ning yaxshi fazilatlarini tavsiflab, uning saroyida yetti yil xizmat qilgani aytadi. Ma`mun II saroyidagi yuksak xurmat va mavqe Beruniyga kamyob metallar va qimmatbaho toshlar ustida eng murakkab kuzatish va tajribalar o`tkazish imkonini bergan va bu keyinchalik “Mineralogiya” asarining yuzaga kelishiga zamin hozirlagan edi. Bundan tashqari Beruniyning Ibn Sino bilan ilmiy falsafiy baxslari natijasida yuzaga kelgan falsafiy qarashlarini qamrab oluvchi yozishmalari (ulardan bizga qadar faqat 18 tasi yetib kelgan) ham huddi shu Xorazm Ma`mun akademiyasida ishlab yurgan yillariga to`g`ri keladi. Bunda Beruniy Aristotelning aql bilan his etish to`g`risidagi xulosalariga o`zining kuzatish va tajribalari orqali aniqlagan xulosalarini qarshi qo`ygani, Ibn Sino esa Aristotelni himoya qilganligi ma`lum bo`ladi. Abu Ali Ibn Sinoning qator asarlari, shu jumladan “Tib Qonunlari” ham ayni shu Xorazm Ma`mun akademiyasida

ishlab yurgan kezlarida shakillana boshlagan. Xorazm Ma'mun akademiyasidagi faoliyatlari bilan o'nlab yirik allomalar jahon ilm fan taraqqiyatiga ulkan ulush qo'sha oldilar. Bu olimlar fanning astronomiya, matematika, kimyo, fizika, mineralogiya, kartografiya, tabiatshunoslik, tibbiyat, falsafa, tarix, arab tili, mantiq, adabiyot, islom huquqshunosligi va boshqa sohalarda jiddiy tadqiqotlarni amalga oshiradilar. Ular arab, fors, hind, lotin, grek va turkiy tillarni mukammal bilar edilar. Grek olimlari Aflotun, Aristotel, Ptolomey, Evklid, Pifagor va Gelenlarning ilmiy ishlarini chuqur tahlil qilib, ularga munosib tahlil yozdilar va yangi g'oyalar bilan boyitdilar. Ta'lim astronomiya bo'yicha Beruniy, Mahmud ibn Hidr, Abu Xayr al-Hasan, matematika bo'yicha Abu Nasr ibn Iroq al-Hamadoni, kimyo bo'yicha Abu Hasan Hammor tomonidan amalga oshirilganligi ma'lum. Shu davrga kelib Gurganj madrasalari va maktablari haqiqiy ilm maskanlariga aylangan edi. Xorazm Ma'mun akademiyasi mintaqada fanni rivojlantiribgina qolmay balki turli davlatlar o'rtasida ma'daniy aloqalarni mustahkamladi, turli xalqlar e'tiqodlarni birlashtiruvchi do'stlik rishtasi bo'lib, tarix sahifasiga yozildi. Bu ilmiy jamoada gipoteza tarzida olg'a surulgan g'oyalar ilm fanning keyingi 500 yili rivojida g'oyat muhim o'rin tutgan. Xorazm Ma'mun akademiyasi olimlari Yunoniston yaqin va O'rta Sharq, Hindiston ilm fan yutuqlarini ijodiy va tanqidiy o'rganib uni yanada yuksak bosqichga ko'tardilar. Abu Nasar Ibn Iroq (Beruniyning ustoz) astronomiyaga qo'shgan hissasi uchun "Batlimusi soniy" (ikkinchi Ptolomey) degan faxriy nom olgan. Abu Hasan Ibn Hammor mantiq, falsafada va ayniqsa tabobatda juda mashhur bo'lgani uchun "Buqroti soniy" laqabiga sazovor bo'lgan. Xorazm Ma'mun akademiyasi 1017 yilda Mahmud G'aznaviy tomonidan Xorazmni bosib olishi bilan o'z faoliyatini to'xtatsada, bu ilmiy maskanda o'rta qo'yilgan g'oyalar, muammolar atrofida munozaralar davom etdi va rivojlantirildi. 1997 yil 11 noyabrda Prezident I.A. Karimovning "Xorazm Ma'mun akademiyasini qaytadan tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilindi. O'shandan buyon Xiva shahriga kiraverishdagi tarixiy obida – qo'sha darvoza bilan yonma yon joylashgan salobatli muhtasham binoda Xorazm Ma'mun akademiyasi qaytadan tiklanib, faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Xorazm Ma'mun akademiyasi tarkibida

“Arxeologiya, tarix va falsafa”, “Til va Adabiyot” “Biologiya muammolari” boʻlimlari tashkil qilinib 9 ilmiy mavzu boʻyicha 26 ta ilmiy hodim, shu jumladan 5 ta fan doktori va 9 fan nomzodlari ilmiy tadqiqotlar olib borishmoqda. 2004 yil 9 noyabrda Oʻzbekiston Vazirlar Mahkamasining jahon ilm fani va madaniyatiga ulkan hissa qoʻshgan Xorazm Maʼmun akademiyasining boy ilmiy meʼrosini har tomonlama oʻrganish, yosh avlod qalbida milliy iftihar va mamlakatimiz tarixiy oʻtmishimizga chuqur xurmat tuygʻusini kamol toptirish maqsadida “Xorazm Maʼmun akademiyasining 1000 yilligini nishonlash toʻgʻrisida” qaror qabul qilindi. Prezident I.A.Karimov 2005 yil 22 sentabrda Xorazm Maʼmun akademiyasida boʻlib uning ilmiy faoliyatini qayta koʻrib chiqish lozimligi haqida toʻxtalib, “Zamonaviy Maʼmun akademiyasining olimlari tariximizning nomalum sahifalarini ochib berishlari kerak. Aynan shu yerdan turib olimlar oʻlkaning ekalogiyasi, yer osti suvlari va tuprogʻining minerallasuvi muammolari Xorazmning boshqa mintaqalardan ajralib turadigan oʻziga hos jihatlari haqida dunyoga oʻzlarining ilmiy tadqiqotlari bilan tasdiqlangan soʻzlarini aytishlari kerak” ligini taʼkidladi. Shundan soʻng 2005 yil 11 noyabrda Oʻzbekiston Vazirlar Mahkamasining “Xorazm Maʼmun akademiyasi faoliyatini takomillashtirish va uning 1000 yilligini nishonlashga doir qoʻshincha chora tadbirlar toʻgʻrisida”gi 228-sonli qarori qabul qilindi. Viloyatdagi barcha tashkilot korxonalar, oʻquv yurtlari ilmiy muassasalar, ushbu masala yuzasidan qoʻshincha chora tadbirlar ishlab chiqdilar va uni amalga oshirdilar. Yangi jihozlar oʻquv qoʻllanmalar, koʻrgazmali vositalar, muzey yaratildi, unga dunyoning yetakchi kutubxonalari va muzeylarida saqlanayotgan qoʻlyozma va hujjatlardan nusxalar olindi, kompyuterlar bilan jihozlandi. Yubileyga bagʻishlangan kitoblar bukletlar plakatlar chop etildi. Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, Urganch davlat Universiteti hamda YUNESKO Xalqaro hamjamiyati bilan hamkorlikda qator ilmiy anjumanlar oʻtkazildi.

Abu Rayhon Beruniy.

Beruniy, Abu Rayhon (973-1048 yil) - Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy - buyuk qomusiy olim va mashhur mutafakkir. Beruniy ilm-fanning

deyarli barcha sohaları bilan shug'ullangan allomadir. U Yaqin va O'rta Sharqning boy fan madaniyatini puxta o'rganib, qadimgi Yunoniston mumtoz ilmi bilan ham chuqur tanishib, yirik aloma bo'lib yetishdi. U shoir, adabiyotshunos olim ham edi. Ona tili bo'lmish Xorazm tilidan tashqari yana arab, sug'diy, forsiy, suryoniy, yunon, qadimgi yahudiy hamda keyinchalik Hindistonda Sanskrit tillarini o'rgandi. Beruniy ilm-fanning hamma sohalarida samarali ijod etib, 162 kitob va risolalar qoldirdi. Shulardan atiga 28 tasi bizgacha yetib kelgan. Hozirgi paytda allomaning "Qadimgi halqlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston", "Geodeziya" "Ma'danshunoslik", "Mas'ud qonuni", "Munajjimlik san'atidan boshlang'ich tushunchalar", Ibn Sino bilan savol-javoblari nashr etilib, turli tillarga tarjima qilindi. Beruniyning tabiiy-ilmiy qarashlari muhim ahamiyatga ega. U astronomik kuzatishlar orqali Oy va quyoshning tutilishi, ularning yerdagi hayotiga ta'siri, gidrogeologiya, iqlim, calendar (taqvim) kabi o'ta murakkab muammolarni yangi ilg'or slub va tamoyillar ko'magida hal etishga e'tibor qaratdi. Aholi manzillari, Ma'dan va metallar solishtirma og'irligini belgilash, tabiiy va sun'iy tanlanish g'oyalari, olamlarning xilma-xilligi haqidagi bashoratlar, tajriba, sinov, kuzatuvga izchil munosabat Beruniy dahosining serjilo qirlari bo'lib, uning buyuk qomusiy olim va mashhur mutafakkir ekanligini ko'rsatib turibdi.

Abu Ali Ibn Sino.

Sharq dunyosining buyuk daxo olimi Abu Ali al-Xusayn ibn Abdulloh ibn al-Xasan ibn Ali ibn Sino Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida tug'ilgan. Uning otasi Abdulloh asli Balxdan bulib, ibn Sino besh yoshga tulganda oilasi bilan Buxoroga ko'chib keladi. Turk yozuvchisi Ibroxim Ogox Chubukchining malumotiga qaraganda, asli turk oilasida bo'lgan ibn Sinoning otasi nihoyatda o'qimishli kishi edi. U "Ig'von as-safo" risolalarini va Ismoiliya mazxabining dunyoqarashlarini sevardi. Bir kun Abdullox An-Notiliy degan falsafani yaxshi biluvchi bir zot bilan tanishganida o'li ibn Sinoni shogirdlikka olishini suraydi. An-Notiliy bulajak allomani o'z tarbiyasiga oladi. Ibn Sino Arastuning "Mantiq" ini, Oklidesning "Anosir" ini, Batlimusning "Al- Majasti" sini shu buyuk zotdan o'rganadi. Bunda oldinroq

esa Ismoil ismli bir zotdan fiqx ismidan taxsil ko'radi. O'n yoshidayoq "Qur'on"ni yod ogan ibn Sino ustozlarini shoshirib quyodigan zukko bola edi. Falsafa, mantiq, falakiyot, tabiiy va riyoziy ilmlar u juda yaxshi biladigan bilim sohalari edi. Bulardan tashqari, Islom tarixini, mufassal o'rgandi. O'zi anglagan darajada Islomiyatni ham sharxlay olardi. Ibn Sino, ayniqsa, tibbiyot ilmiga alohida mehr qo'ygandi. Bu borada u xristian tibbiyotshunos olimi Iso bin Yahyo asarlaridan ko'p foydalangan. Chunki u tibdan tajribalarga ko'p ahamiyat bergan tabib bo'lgan. Qisqa vaqt ichida ibn Sino tabobat soxasida katta shuxrat qozanadi. Ibn Sinoning o'zi bu xaqida quydagilarni yozgan edi: "Tib aslida qiyin ilmlardan emas, shu sababdan men qisqa muddat ichida bu sohada shunday yutuqqa erisha oldimki, xatto fozil tabiblar ham mendan kelib, tib ilmini o'qiydigan bo'ldilar. Bemorlarga ham qatnar edim. Erishgan tajribalarim natijasida menga davolash eshiklari shunday keng ochildiki, uni ta'riflab bo'lmaydi"

Ibn Sinoning obro'-e'tibori kun sayin oshib borganligini bir necha e'tiborli dalillar isbot qiladi. Buxoro amiri Nux ibn Mansur (970-997) og'ir dardga chalinadi. Uni davolashda ibn Sino faol qatnashadi va buning evaziga u saroy kutubxonasida saqlanayotgan nodir kitoblardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. 1002 yilda Xorazmga boradi. O'sha davrning yirik madaniyat markazlaridan biri bo'lgan Urganchda Ma'mun akademiyasida faollik ko'rsatadi. Abu Rayhon Beruniy singari buyuk olimlar bilan hamkorlikda ishlaydi. Xorazimni Mahmud G'aznaviy egallagach, Ibn Sino Gurgon amirligiga, u yerdan Ray, Kazvin shaharlariga o'tib, so'ng Xamadonga – buvayhiylar xukmdori Shams ad-Davla xizmatiga (997-1021) kiradi. Xamadon amiri Shams ad-Davlani davolagan ibn Sino vazirlik darajasiga ko'tariladi. Askarlar orasida sodir bo'lgan isyon tufayli ibn Sino zindonga tushadi. Ammo Shams ad-Davla kasallanganda zindonband etilgan buyuk tabib ikkinchi bor uni davolaydi va tag'in vazirlikka tayinlanadi. Shams ad-Davla vafotidan so'ng uning o'g'li Samo ad-Davla taxtga o'tiradi. Ibn Sino vazirlikda qolishni istamaydi. U Isfaxon amiri Aloud-Davlaga maktub yo'llab vazifa so'raydi. Bu xatti-xarakati

uchun Xamadon xukumdori ibn Sino zindonband qilada. Oradan to'rt oy o'tgach, Isfaxon amiri Aloud-Davla Xamadonni bosib oladi va ibn Sinoni xibsdan ozod etadi. Tinimsiz ilmiy mutolaa, shaharma-shahar darbadarlarcha yurish, olimga nisbatan bir necha bor uyushtirilgan ta'qib va zindonlar, albatta, uning salomatligiga ta'sir etgan edi. Ibn Sino 1037 yilda (xijriy 428) 57 yoshida vafot etadi. Buyuk qomusiy olimdan juda katta meros qolgan. Turli manbalarda ulug' mutafakkirning falsafa, mantiq, ruxshunoslik, adabiyotshunoslik she'riyat, musiqa, geologiya, mineralogiya, fizika, matematika, tibbiyot, falakiyot va fanning boshqa soxalariga oid 450 dan ortiq ilmiy asarlari qayd etiladi. Biroq bizgacha Ibn Sinoning faqat 242 ta asari yetib kelgan, xolos. Shundan 80 tasi falsafa, iloxiyot va tasavvufga, 43 tasi tabobatga, 19 tasi mantiqqa, 26 tasi ruxshunoslikka, 23 tasi tibbiyot ilmiga, 7 tasi falakiyotga, 1 tasi riyoziyotga, 1 tasi musiqaga, 2 tasi kimyoga, 9 tasi odob ilmiga, 4 tasi adabiyotga, 8 tasi boshqa olimlar bilan bo'lgan yozishmalarga tegishlidir.

Olimning falsafaga oid "Kitob ash-shivo" asarini o'z davrining qomusiy asarlaridan desak mubolag'a bo'lmaydi. Unda mantiq, tabiiy fanlar, riyoziyot va ilohiyot bo'yicha falsafiy g'oyalar o'z aksini topgan. Yana bir falsafaga oid yirik asar "AL-ishorot va tanbihot" (Ishoralar va tanbixlar) xisoblanadi. Unda falsafaning asosiy masalalari qisqacha bir tarzda bayon etilgan. Fors-dariy tilida yozilgan yirik falsafiy asarlardan biri "Donishnoma" (Bilim kitobi) dir. Ibn Sino bu asarida o'zidan oldingi va o'z davridagi tabiiy fanlar va falsafaning yutuqlaridan foydalangan xolda shunday bir falsafiy asar yaratdiki , bu asar O'rta asr Sharqidagi nazariy bilimlarning eng yuqori cho'qqisiga ko'tarildi. Ibn Sinoning tabobat ilmi bobida qoldirgan buyuk merosi ayniqsa katta tarixiy axamiyatga egadir. Uning tabobatga oid asarlaridan 30 tasi bizgacha yetib kelgan, shulardan asosiylari o'zbek tiliga tarjima qilingan. Ulug' xakimning tabobatga oid shox asari albatta "Kitob al-Qonun fi-t-tib" (Tib qonunlari kitobi) dir. Ibn Sino "Tib qonunlari "ni besh kitobga bo'linadi. Ibn Sino tom ma'noda Gippokrat qilgan ishlarni munosib davomchisi bo'la oldi. U o'zining "Tib qonunlari" asari bilan jahon tibbiyot ilmiga

yetuk hissa qo'sha oldi. Uning "Tib qonunlari" asari XVII asrgacha Yevropadagi tibbiyot institutlarida asosiy darslik sifatida foydalanilganligi esa Yevropa Ibn Sino siymosi munosib tarzda qadrlanganligidan nishonadir. Ibn Sino nafaqat tibbiyotda balki falsafa fani bo'yicha yozgan asarlari ham muhim o'rin tutadi. Ibn Sinoni tom ma'noda Sharq Falsafasining asoschisi deyish mumkin. U o'z asarlarida komil inson g'oyasini juda aniq tarzda ochib bera oladi. Qur'oni Karimdagi hayot haqidagi fikrlarni esa o'z izlanishlari bilan isbotlab beradi. Ibn Sino aynan bizning diyorimizdan ekanligi bilan har qancha faxrlansak arziydi.

4. Hadis va fiqh ilmi. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Burhoniddin Marg'inoniy, Moturudiy.

Hadis (arabchadan gap, suhbat) - Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) aytgan gaplari, qilgan ishlari va boshqa qilgan ishlarga munosabati haqida sahobalar, Payg'mbar alayhissalomni ko'rgan kishilar qilgan rivoyatlarni anglatadigan tushunchadir. Xadislar mazmun – mohiyatiga ko'ra odamlarni ezgulik, o'zaro hamjihatlik, birodarlik, adolatparvarlik kabi yuksak insoniy fazilat va sifatlarni ega bo'lishga chorlaydi. O'n to'rt asrdan ziyod vaqt davomida hadislar insonlarni jaholat va zalolat botqog'idan hidoyat va najot yo'lga dawat etib kelmoqda. Hadislar bir necha turga bo'linadi. Payg'ambarimiz (s.a.v) ba'zi hadislarini aytgan paytlarida oldilarida bitta kishi bo'lgan. O'sha kishi Rasululloh (s.a.v) aytgan gaplarini boshqalarga yetkazgan. Bunday hadis "Ohod", ya'ni, "bir kishi eshitgan hadis" deb nomlanadi. Ba'zi hadislarini aytgan paytlarida oldilarida ko'p kishilar bo'lgan va bunday hadislar "mutavotir", ya'ni, "ko'p kishilar eshitgan hadis" deb ataladi hamda eng ishonchli hadis sanaladi. Hadislar payg'ambarimiz (s.a.v) hayotligida tartibga solinmagan va kitob holiga keltirilmagan edi. Birinchi hadislar to'plami Molik Ibn Anasning "Muvatto", ash-Shofiyning "Ar-Risola" va Ahmad ibn Hanbalning "Al-Musnat" asarlaridir. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Muslim, Ibn Mojja kabi bir qator muhaddis olimlar hadislarini tekshirib, ularni sahih va zaifga ajratib berdilar. Eng ishonchli hadis to'plami – "Olti ishonchli to'plam" dir. Bu borada ulug'muhaddis Imom Buxoriyning "Al Jome' As-sahih" asari eng mukammal to'plam hisoblanadi. Mustaqillik yillarida Imom Buxoriy,

Imom Termiziy kabi muhaddislarning hadis to'plamlari o'zbek tilida nashq qilindi. Hadislarda ilgari surilgan tavhid, diyonat, vatan va xalqqa sadoqat, hamjihatlik, bag'rikenglik, ozaro hamkorlikka chorlovchi g'oyalar yosh avlodni komil insonlar qilib voyaga yetkizishda muhim vosita bo'lib hizmat qilmoqda.

Imom al-Buxoriy.

Imom al-Buxoriy – Qur'ondan keyin turadigan mo'tabar manbaa – hadislarni to'plash va ularning eng ishonchlilarini ajratib berish orqali shuhrat qozongan, dunyo xalqlari orasida eng buyuk muhaddis sifatida e'tirof etilgan alloma. Asl ismi Abu Abdulloh Muhammad Ibn Ismoil Ibn Ibrohim Ibn al-Mag'ira ibn Bardazbeh al-Ju'afiy al-Buxoriy 810 yil 20 iyul (hijriy hisobda 194 yil shavvol oyining 13-kuni) da Buxoro shahrida tavallud topgan. Boshqa olimlardan farqli o'laroq Buxoriy tug'ulgan sananing aniqligi shundaki, uning otasi Ismoil o'z davrining ilmli odamlaridan bo'lib oglining tug'ulgan kunini o'z qo'li bilan yozib ketgan. Buxoriyning otasi yoshlik chog'ida vafot etigan bo'lib, u asosan onasining tarbiyasini oladi. U yoshligidan aql-idrokli, o'tkir zehqli va ma'rifatga havasi kuchli bo'lib, turli ilm-fanlarni ayniqsa hadis ilmini zo'r qiziqish bilan o'rganadi. Manbaalarda ko'rsatilishicha, u o'n yoshidan boshlab o'z yurtidagi turli roviylardan eshitgan hadisarni, shuningdek Abdulloh ibn al-Muborak va Vakiy ibn al-Jarroj kabi olimlarning hadis to'plamlarini yodlagan, ustozlari Shayx Doxiliy bilan hadis roviylari haqidagi qizg'in baxslarda qatnashgan. 825 yili o'n olti yashar Buxoriy onasi va akasi Ahmad bilan Hijozga haj ibodatini ado etish uchun yo'l oladi. Muqaddas shaharlar Makka va Madinani ziyorat qilgach, olti yil Hijozda yashab qoladi, so'ngra hadis ilmi borasidagi ilmini yanada oshirish maqsadida o'sha paytdagi ilm-fan markazlari Damashq, Qohira, Basra, Kufa, Bog'dod kabi shaharlarda yashaydi. U joylardagi mashhur olimlardan hadis va fiqh ilmidan ta'lim olib, yirik olimlar davrasida ilmiy baxslar-u munozaralarda qatnashadi, ilm toliblariga dars beradi. Buxoriy hayotining ko'p qismi musofirchilikda o'tadi. Bu haqda uning o'zi: "Misr, Shom, Mesopotamiyaga ikki marta, Basraga to'rt marta borganman. Hijozda olti yil yashaganman. Bo'g'dod va Kufa shaharlariga necha marta borganimni hisobini bilmayman", degan ekan. U safar chog'ida ham, bir

shaharda muqum turganda ham ilmini oshirish borasida tinimsiz ishlar, to'plagan hadislarini esa oqqa ko'chirar edi. Buxoriyning yozishicha Bog'dodda yashagan chog'ida ko'pincha oy nurida ijod qilib, qorong'u kechalarda sham yorug'ida kitob yozgan. Nishopurlik al-Hokimning yozishicha, Buxoriy ustozlarining soni to'qsonta atrofida bo'lib, ular orasida Muhammad ibn Yusuf al-Haryobiy, Ubaydullox ibn Muso al-Abasiy, Abu Bakr Abdulloh ibn az-Zubayr al-Hamidiy, ibn Royvayx nomi bilan mashhur bo'lgan Imom Is'hoq ibn Ibrohim, Imom Ahmad ibn Hanbal, Ali ibn al-Madiniy kabi o'sha zamonning eng peshqadam allomalari ham bor edi. O'z navbatida Buxoriy ham ko'pgina shogirdlarga ustozlik qilgan. Is'hoq ibn Muhammad ar-Romidiy, Abdulloh ibn Muhammad al-Masnadiy, Muhammad ibn Xalaf ibn Qutayb, Ibrohim al-Harbiy, Abu Iso Termiziy, Muhammad ibn Nasr Marvaziy, Muslim ibn al-Xajjokabi yetuk olimlar uning shogirdlaridandir. Termizlik mashhur muhaddis Abu Iso Termiziy Imom Buxoriyga ham shogird ham safdosh hisoblanib ularning munosabatlari nihoyatda yaqin bo'lgan. Uzoq yillar davomida Sharqning ko'plab shaharlariga safar qilgan Buxoriyumrining oxirida besh yil (863-868) Nishopurda yashab madrasalarda hadis ilmidan dars berdi. O'sha davrlarda Nishopur musulmon Sharqidagi eng yirik markazlardan biriga aylanganligi sababli ko'p mashhur olimlar shu shaharda to'plangan edilar. Buxoriyning Termiziy bilan uchrashuvi ham aynan Nishopurda yuz berib, diyorimizdan chiqqan ikki yirik muhaddis o'trasida qizg'in ilmiy baxslar ijodiy uchrashuvlar bo'lib o'tadi. Termiziyning yozishicha u o'z asarlari uchun ko'p ma'lumotlarni Buxoriy bilan bo'lgan uchrashuvlaridan olgan. Shu bilan birga Buxoriy ham Termiziy bilimlarini yuqori baholab: "Mening sendan ko'rgan foydam sening mendan ko'rgan foydangdan ortiqroq" deb unga nisbatan chuqur xurmatini bildirgan. Arab tarixchisi Shamsuddin az-Zahabiy (1274-1347) "Tazkirat ul-Huffoz" ("Hofizlar haqida tazkira") nomli asarida yozishicha, at-Termiziy o'z ustozining vafoti tufayli qattiq qayg'uga botib ko'p yig'laganligidan ko'zlari ko'r bo'lib qolgan ekan. Buxoriy nafaqat yirik olim balki o'zining g'ozal hulq-atvori, odamoxunligi, muruvati, himmati va beqiyos sahovati, bilan ham boshqalardan ajralib turgan. U zehni o'tkirligi va quvvai hofizasining kuchliligi

bilan ham xalq orasida shuxrat qozongan. Manbaalarda Buxoriyning 600000 ga yaqin hadisni yod bilgani qayd etiladi. Buxoriy xoriydan qaytgach vatani Buxoroda ko`plab shogird va ulomolarga hadis ilmidan saboq berish bilan mashg`ul bo`lgan. Ko`pchilik uni xurmat qilgan, ammo Buxoro amiri Xolid ibn Ahmad az-Zuhliy bilan Buxoriyning aloqasi buzulib qoladi. Bunga sabab amir olimdan saroyga kelib “Al-Jome` as-Sahih” va “At-Tarix” kitoblaridan uning farzandlariga saboq berishini talab qilgan. Lekin Buxoriy “men ilmni hor qilib, uni hokimlar eshigiga olib bormayman, kimga ilm kerak bo`lsa, o`zi kelsin. Ilm bormaydi, ilmga kelinadi” degan javobni aytgan edi. Amirga javob yoqmay fitnachi, bo`xionatchi kimsalarning gapiga kirib Buxoriyga shaharni tark etishni buyuradi. Shundan keyin Imom Buxoriy Samarqandga qarab yo`l oladi va bir muncha muddat shahar yaqinidagi Hartang qishlog`ida o`z shogirdlari va qarindosh urug`larinikida yashaydi, so`ngra og`ir kasalga chalinib, 870 yil 31 avgustda (hijriy 256 yilda) 60 yoshida vafot etadi va shu yerda dafn qilinadi. Buxoriyning avlodlarga boy qimmatli ilmi-manaviy me`ros qoldirgan bo`lib, u yozgan asarlarining soni yigirmadan ortiqdir. Ulardan “Al-Jome` as-Sahih”, “Al-adab al-mufrad”, “At-Tarix as-Sag`ir”, “At-Tarix al-Axsat”, “At-Tarix al-kabir”, “Kitab al-ilal”, “Birr ul-volidayn”, “Asmo us-sahoba”, “Kitob al-kuna” va boshqalarni ko`rsatish mumkin. Buyuk alomaning buyuk asari shubhasiz “Al-Jome` as-Sahih”dir. Bu asar “Sahih al-Buxoriy” nomi bilan ham mashhur bo`lib, uning g`oyat ahamiyatli tomoni shundaki, Buxoriygacha o`tgan muhaddislar o`z to`plamlariga eshitgan barcha hadisni tanlab o`tirmay qatorasiga kiritaverganlar. Buxoriy esa turli roviylardan eshitgan hadislarini tabaqalarga bo`lib, ularni ishonchlilarini ajratib alohida kitob yaratgan. Alloma Salohning ta`kidlashicha, Buxoriyning bu asariga kiritilgan ishonchli hadislarini soni takrorlanadiganlari bilan birga 7275 ta bo`lib, takrorlanmaydigan hadislar esa 4000 dan ziyod. Buxoriyning bu asari dunyo yuzini ko`rganiga tahminan 1200 yil bo`ldi, o`sha davrdan boshlab toki shu vaqtgacha bu islom ta`limotida Qur`ondan keying ikinchi o`rinda turadigan muhum manbaa sifatida yuqori baholanib kelmoqda. Ushbu asarning ko`plab nusxalari jahonning turli mintaqalariga tarqalgan. Hatto o`rta asrlarda yashagan hattotlar uchun bu asar

nushalarini ko`cherish tirikchilik manbai ham bo`lgan. Jumladan taniqli adib va tarixchi an-Nuvayriy (1332 yilda vafot etgan) Buxoriyniing ushbu asaridan sakkiz nusxa ko`chirib har birini ming dirhamdan sotganligi haqida ma`lumotlar bor. Asarning 1325 yilda ko`chirilgan sakkiz jilddan iborat bir nusxasi hozir Istanbulda saqlanmoqda. “Al-Jome` as-Sahih” ga ko`plab sharhlar bitilgan. 1974 yili O`rta Osiyo va Qozog`iston musulmonlar boshqarmasi tashabbusi bilan jumhuriyatimizda islom dunyosi vakillari ishtirokida allomaning 1200 yillik yubleyi nishonlangan edi. Uning shoh asari hisoblanmish “Al-Jome` as-Sahih” va “Al-adab al-mufrad” kitoblarining Toshkentda qaytadan nashr qilinishi Buxoriy me`rosini o`rganishda katta ahamiyatga ega bo`ldi. Toshkentdagi diniy oily mahad`ning Buxoriy nomi bilan atay boshlangani ham buyuk allomaga chuqur hurmat–e`tiborning ramzidir. O`zbekiston hukumatining qarori bilan 1998 yilning kuzida Buxoriy tavalludining 1225 yilligi dunyo miqyosida keng ko`lamda nishonlandi. Prizident I.A.Karimovning bevosita rahnamoligida Buxoriyning Samarqand yaqinidagi Hartang qishlog`ida joylashgan maqbarasi zamonaviy-sharqona uslubda batamom qayta qurilib, musulmon olamining tabarruk ziyoratgohlaridan biriga aylandi.

Abu Iso at-Termiziy.

Abu Iso Muhammad Termiziy - musulmon olamida mashhur olti muhaddisdan biri. Mashhur olim va tarixchi Abu Saad Abdulkarim as-Sam`oniy “Al-Ansob” nomli asarida yozishicha, Termiziy Bug` (hozirgi Sherobod tumani hijriy 279 yil) qishlog`ida vafot etganligi uchun uning nomiga keyinchalik al-Bug`iy taxallusi ham qo`shilgan. Allomaning yoshlik yillari Termiz shahrida o`tgan, dastlabki ma`lumatni ham shu shaharda olgan. Bolaligidan o`ta ziyrakligi, xotirasining kuchliligi va noyob qobiliyati bilan tengqurlaaridan ajralib turgan. Termiziy diniy va dunyoviy fanlarni, ayniqsa hadis ilmini egallagan. Bu borada o`z bilimlarni yanada oshirish maqsadida ko`pgina Sharq mamlakatlarida bo`lib, turli allomalar bilimidan bahramand bo`lgan. Shu munosabat bilan u uzoq yillar Iroq, Isfaxon, Xuroson, Makka va Madina shahrlarida yashagan. Ko`p yillar davom etgan safarlari chog`ida Termiziy ilm al-qiroat, ilm al-bayon, fiqh, tarix, ayniqsa,

hadis ilmi bo'yicha o'z davrining yirik olimlari - muhaddislardan ta'lim oladi. Uning ustozlaridan Imom Buxoriy, Imom Muslim, Imom Abu Dovud, Qutayba ibn Said, Is'hoq ibn Muso, Mahmud ibn Haylon va boshqa mashhur muhaddislarni ko'rsatish mumkin. Termiziy qalamiga mansub asarlarning aksariyati bizgacha yetib kelgan. "Al-Jome'", "Ash-Shamoil an-nabaviya", "Al-ilal fil-hadis", "Risola fi-xilof val-jadal", "At-Tarix", "Kitob az-zuhd", "Kitob ul-asmo val-kuna" kabi asarlar shular jumlasiga kiradi. Termiziyning asarlari orasida eng mashhuri shubhasiz "Al-Jome'" bo'lib oltita ishonchli hadislardan biridir. Ushbu asar ilmiy adabiyot va manbaalarda "Al-Jome' as-sahih", "Jome' at-Termiziy", "Sunn at-Termiziy" nomi bilan ham atalib, Payg'ambar alayhissalom hayoti va faoliyatiga doir muhim manbaalardan hisoblanadi. Termiziyning mashhur asarlaridan yana biri "Ash-shamoil an-nabaviya" bo'lib, ba'zi manbaalarda "Ash-shamoil an-nabiy sallolluyhu alayhi vassallam" nomi bilan ham keltiriladi. Nomidan ham ko'rinib turibdiki, bu asar payg'ambar alayhissalomning shahsiy hayotlari, u kishining surat va siyratlari, ajoyib fazilatlarini, odatlariga oid 408 hadisni qamrab olgan manbadir. Shuni ta'kidlash kerakki, payg'ambar alayhissalomning fazilatlarini, odatlarini haqidagi hadislarini to'plash bilan juda ko'p muhaddislar shug'ullanganlar va bu xildagi hadislar turli-tuman kitoblardan o'rin olgan. Lekin Termiziy asarining afzalligi shundaki u hadislarini muntazam ravishda to'plab muayyan tartibga solgan va yahlit bir kitob holiga keltirgan. Muhammad alayhissalomning hayotiga doir muhim manba sifatida "Ash-shamoil an-nabaviya" azaldan islomshunos olimlar tadqiqotchilarning diqqatini o'ziga tortib kelgan. Arab tilida yozilgan ushbu asarga bir necha sharhlar ham yozilgan. "Ash-shamoil an-nabaviya" ning XVI asrlarga oid bir qo'lyozmasi Toshkentda, O'zbekiston musulmonlar idorasi kutubxonasida saqlanmoqda. 1980 yilda Toshkentda musulmonlar diniy idorasi buyurtmasi bilan "Ash-shamoil an-nabaviya" ning ushbu qo'lyozmasi ofset tariqasida nashr etilib, unga Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon tomonidan qisqacha so'zboshi yozilgan. "Ash-shamoil an-nabaviya" so'nggi yillarda ham Toshkentda bir necha bor nashr etildi. Bundan tashqari allomaning 1200 yillik yubileyi (1990) munosabati bilan gazeta jurnallarda asar va

uning muallifi haqida ko`plab maqolalar, shuningdek mustaqillik yillarida allomaning “Sunan at-Termiziy” asarining birinchi jildi o`zbek tilida nashr etildi.

Fiqh.

Fiqh-bu islom huquqshunosligidir. Faqih esa musulmon huquqshunosidir. Yurtimizdan ko`plab bu soha vakillari yetishib chiqqan. Ular Abu Mansur Moturidiy Samarqandiy, al-Hakim al-Buxoriy, Abul Lays Samarqandiy, Abu Bakr Xorazmiy, an-Nisoviy, Abu Zayd Abdulloh Dabusi, Abu Nasr Isfijobiy, Pasdaviy Samarqandiy, Abu Mu`in Nasafiy, Burhoniddin Marg`inoniy, Abu Abdulloh Xosimiddin Ahsikatiy Farg`oniy va boshqalar. Yuqoridagi faqihshunoslar ko`plab shu soha bo`yicha kitoblar yaratganlar. Ularning ismlaridagi nisbatlar hozirgi O`zbekistonning deyarli hamma yirik hududlarida huquqshunoslik fani ravnaq topganligini ko`rsatadi. Biz quyida yurtimiz nainki yurtimiz balki butun islom jumhuriyatida o`z asarlari bilan mashhur bo`lgan ikki faqihshunos olilar ijodi haqida to`xtalib o`tamiz.

Abu Mansur Moturidiy (870-944 yillar).

Moturidiy - Samarqandning Moturid qishlog`ida tavallud topgan. O`rta asrlarda keng tarqalgan kalom ilmining musulmon olamidagi mashhur nazariyotchilaridan biri. Shu bilan bir qatoqda yirik fiqih (musulmon huquqshunosi) va mufassir (Qur`oni Ka`rim tavsirchisi) islom olamida keng tanilgan ilohiyotchi mutaffakkir. Tarixiy asarlarda allomaning ismi to`liq tarzda laqabi va nisbasi bilan birgalikda Muhammad ibn Mahmud ibn Muhammad Abu Mansur Moturidiy tarzida qayd etiladi. Moturidiy Abu Xanifaning sodiq izdoshi sifatida uning qarashlarini rivojlantirgan. Abu Xanifa amal mashabini, Moturidiy esa e`tiqob mashabini ishlab chiqqan. Moturidiy faqatgina mutakkallim (kalom, ya`ni Qu`roni Karim ma`nolarini talqin qilluvchi) bo`lib qolmadi, balki yirik faqih va mufassir sifatida ham tanildi. Moturidiyning tafsir (Qur`on sharhi) va ta`vil (Qur`ondagi yashirin ma`nolarni yoritish) ga oid (Masalan, “Ta`vilotu Abi Mansur Moturidiy fit-tafsir” yoki “Ta`vilot al-Qur`on” ), “Mo ahaz ash-sharoi`a” (“Shariat asoslari manbasi”), “Kitab al-Jadal” (“Dialektika haqida kitob”) kabi asarlari

mashhur. Bulardan tashqari, “Kitab al-usul” (“Diniy ta’limot usuli kitobi”) asari borligi ham ma’lum.

Moturidiy “Ta’vilot al-Qur’on” asarida Abu Xanifaning qarashlariga suyanib o’sha vaqtlarda islom olamida keng tarqalgan turli buzg’unchi g’oyalar, ta’limotlar va harakatlarning mohiyatini ilmiy asosda rad qilish bilan butun musulmon dunyosi e’tirofiga sazovor bo’lgan. Moturidiy zamonasining mashhur allomalaridan ta’lim olgan. Tarixchilar ulardan quyudagi to’rt nafar allomani alohida ajratib ko’rsatganlar: Abu Nasr al-Iyoziy as-Samarqandiy, Abu Bakr Ahmad Juzjoni, Muhammad ibn Muqotil ar-Roziy, Nusayr ibn Yaxyo al-Balxiyil. Moturidiyning barcha ustozlari fiqhda Abu Xanifaga tayanadilar, bu oxir oqibatda hanafiy mazhabiga oid turli fiqhiy maktablar vujudga kelishiga sabab bo’ladi. Moturidiyning shogirdlari yirik olimlar, o’z davrining yirik shayxlari, hamda moturidiyya Samarqand kalom ilmi maktabining vakillari bo’lishgan va islom olamining ilmiy, madaniy, ma’naviy taraqqiyoti uchun xizmat qilgan edi. Is’hoq ibn Muhammad Ismoil ibn Ibrohim ibn Zayd, Abu Qosim qozi, Hakim as-Samarqandiy, Abdulloh ibn Sahl az-Zohid Amr ibn Osim al-Marvaziylar Moturidiydan fiqh o’rganganlar. Is’hoq ibn Muhammad uzoq vaqt Samarqand qoziligidan bosh tortgan, “al-Hakim” unvonini olgan. Moturidiyning tengdoshlari ham alloma ilmiy salohiyati va merosini o’rganishda muhim o’rin tutadi. Ali ibn Said, Abul Hasan ar-Rustug’faniy, Muhammad ibn Aslam ibn Muslima ibn Abdulloh ibn Mag’iyra Amr ibn al-Azdiylarning Moturidiy haqidagi xotira va mulohazalari saqlanib qolgan.

2000 yilda buyuk mutaffakkirning 1130 yillik yubileyi keng nishonlandi. Mazkur yubileyda Prezident I.A.Karimov nutq so’zlab, alloma yurtodoshimizning insoniyat madaniyatiga qo’shgan hissasi to’g’risida jumladan quyidagicha mulahazalarni bayon qilgan edi: “Alloma bugungi kunda ham o’z ahamiyati va ta’sirini yo’qotmagan hayotbaxsh kuch, ya’ni g’oyaga qarshi g’oya jaholatga qarshi ma’rifat yo’lini tanladi va umrining oxiriga qadar shu yo’lda sobit qoldi. U johil kuchlarning tahdid va tajovuzlaridan qo’rqmay, hodoyat yo’lini yo’qotgan firqalarga qarshi jiddiy va keskin raddiyalar bitdi. Hazrat Moturidiyning

asarlaridagi ilmiy asos va mantiq qudrati shu darajada kuchli ediki, uni hatto allomaning muholiflari ham tan olishga majbur bo'ldilar. Shuning uchun ham Moturidiy bobomiz islom olamida "Musulmonlarning e'tiqodini tuzatuvchi" degan yuksak sharafiga sazovor bo'ldi. Mana shu ma'noda bu mo'tabar zot o'zining teran ilmi, pok e'tiqodi sabot va matonati bilan islom dining sofligi uchun kurashar ekan, kelajak avlodlarning manfaatlarini himoya qilgan, deb ishonch bilan aytishga haqlimiz. Buyuk bobomizning o'z Vatani oldidagi yana bir ulkan hizmati shundan iboratki, ulug' vatandoshimiz e'toqod ilmi – muqaddas dinimizni qanday tushunish va unga qanday amal qilish ta'limotini yanada rivojlantirdi. Islom dining insonparvarlik mohiyatini xalqning milliy urf-odatlarini, asriy an'analarini bilan uyg'unlashtirdi. Hazrati Moturidiyning o'ninchi asrdayoq diniy g'oyarlarni g'arazli maqsadlar yo'lida qurolga aylantirish, mutaassiblik va johillik botqog'iga botib qolish qanchalik xatarli ekanligini aqlab bergani biz uchun ayniqsa muhimdir. Alloma bobomiz: "Din yo'lidagi barcha adashuvlarning bosh sababi riyokor kimsalarga ko'r-ko'rona ergashishdir", degan edi. Bu so'zlarning naqadar haqqoniy ekanligini, hanuz o'z ahamiyatini yo'qotmaganligini butun dunyoda ro'y berayotgan yuzlab voqealar misolida yaqqol ko'rib turubmiz".

Burhoniddin Marg'inoniy (1123 yilda tug'ulgan).

Burhoniddin Marg'inoniy - Sharq uyg'onish davri allomalaridan biri. Jahon madaniyati va ilm faniga qo'shgan hissasi butun dunyoda e'tirof etilgan buyuk siymo. To'liq ismi - Abul-Hasan Ali ibn Abu Bakr ibn Abdul Jalil al-Farg'oniy ar-Rishdoniy Marg'inoniy. Uni "Brhon ud-din va-l-milla" degan nom bilan ham atashgan. "Milla" olimni ulug'lab, uni musulmon dunyosidagi xalqlar hamda islom dining dalili, isboti deb madh etishdan kelib chiqqan. Marg'inoniyning tug'ulgan Batani bugungi O'zbekistonning Farg'ona vodiysidagi Rishton qishlog'i bo'lib, Marg'ilonning Pirsiddiq mahallasida ham 13 yil yashagan va shu yerda o'zining mashhur "Hidoya" kitobining birinchi qismini yozib tugatgan. Umrining so'nggi yillarida Samarqandda o'tkazib, ushbu kitobni 1178 (hijriy 573) yilda yozib bitirgan. Shomiy "Radul muxtor" da yozishicha, Marg'inoniy 400 ga yaqin Muhammad nomli faqihlar dafn etilgan Samarqand shahrining Muhammadiylalar

qabristoni yonida dafn etilgan. Margʻinoniy yoshlik chogʻlaridayoq Qurʻoni Karimni yod olib, hadislarini chuqur oʻrganadi. Margʻinoniy 1149 (hijriy 544) yilda muqaddas haj safariga boradi. Ilmga qiziqish Margʻinoniyning uzoq safarlarga borib, oʻsha davrning asosiy fanlari boʻyicha yetuk allomalardan taʼlim olishga undagan edi. Ana shu intilishini islom dinning xanafiy mazhabi boʻyicha buyuk faqih va huquqshunos allomasi darajasiga koʻtargan edi. Prezident I.A.Karimovning taʼbiri bilan aytganda, Margʻinoniy yashagan zamon - Sharq uygʻonish davrining birinchi bosqichi boʻlmish X-XII asrlarda Movaraunnahr zaminida ilmu-fan gurkirab rivojlangan, jamiyat taraqqiyoti uchun islom huquqini toʻgʻri anglash va amal qilish muhim ijtimoiy zaruriyatga aylangan edi. Margʻinoniy esa oʻz asarlarida oʻsha zamonlarda moʻmin-musulmonlar duch keladigan dolzarb hayotiy masalalar, jumladan, oilaviy va ijtimoiy munosabatlar, mulkchilik, savdo-sotiq, jinoyat va jazo, insonning burch va maʼsuliyatlariga taʼluqli koʻp- koʻp murakkab muammolarni islomiy huquq nuqtai nazaridan hal etib bergan edi. Fiqh ilmi boʻyicha u yozgan asarlar, ayniqsa, “Hidoya” kitobi, oʻsha davrda mavjud va katta ahamiyatga molik boʻlgan koʻplab huquqiy muammolarni yechib berishga qaratilgan va bu yoʻnalishdagi oʻziga hos qulayliklar bilan barchaning eʼtirofiga sazovor boʻlgan edi. Kotib Chalabiy, Muhammad Abdulhay Laknabiy, “Hidoya”ning ayrim sharhlovchilari, shuningdek, “Islom qomusi” mualliflari tomonidan berilgan maʼlumotlarga koʻra, Margʻinoniy fiqh masalalariga oid yana oʻnlab mukammal asarlar yaratgan. Uning bizga qadar quyidagi asarlari yetib kelganligi taʼkidlanadi: “Nashrul mazhab” (Mazhabning tarqalishi), “Kitob al-munosakul-haj” (Haj marosimi haqida kitob), “Kitobun fil-faroiz”(Meros huquqi haqida kitob), “Kitob- attajniysu val- maziyd” (Ilmni ziyoda qiluvchi kitob), “Muxtorotun navozil” (Nozil boʻlgan narsalar majmuasi), “Kitob ul-mashoyih” (Shayhlar haqida kitob), “Maziydun fi furuʼil- hanifiya” (Hanafiy mazhabga qoʻshimchalar), “Bidoyat ul-mubtadiʼ” asari uchun yozilgan 8 jildlik sharh. Lekin Oʻrta asrlarning faqihlarining koʻpgina asarlari kabi Margʻinoniyning ham asarlarining hammasi bizga qadar toʻliq yetib kelmagan.Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sarqshunoslik instituti Qoʻlyozmalar xazinasida allomaning

bir qator asarlaridan qo'lyozmalar bor: "Bidoyat ul-mubtadi'" - tartib raqami 3895, "Muxtorotun navozil" 4624, "Hidoya fi al-fiqh" 11497 (4 nusxa), "Al-Kifoya fi sharh Hidoya"3816, "Hidoay fi al-furu'" 11046 (33 nusxa). Sharqda "Hidoya" nomli asarlar yaratish ananasi mavjud bo'lgan. "Al-Hidoya" arabcha so'z bo'lib "to'g'ri yo'dan olib borish", "Ishonchli qo'llanma" degan ma'nodadir. Marg'inoniy tomonidan yozilgan "Hidoya" asari to'rt jildidan iborat bo'lib uning har bir jildi turli muammolarning huquqiy yechimiga bag'ishlangan.

Xulosa.

Ma'lumki IX-XI asrlarda O'rta Osiyoda Somoniylar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar kabi davlatlar mavjud bo'lgan. Bu davlatlarning markazlashuvi natijasida o'lkada al Farg'oniy, al Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Farobiy, Imom al Buxoriy, Imom at Termiziy, Burxoniddin Marg'inoniy, Motrudiy, Mahmud Qoshqariy kabi allomalar etishib chiqdi va jahon fani taraqqiyotiga muhim hissa qo'shdi. Bu allomalar Bog'dod va Urganch akademiyalarida ijod qildilar va ilm-fan taraqqiyotiga xissa qo'shdilar. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, uzoq yillar mobaynidan nomlari, asarlari va kashfiyotlari bizga noma'lum bo'lib kelgan bu allomalarni asta-sekinlik bilan yurtdoshlarimiz, butun jahon tanimoqda, tan olmoqda. Bu allomalarimizning yozgan asarlari, kashfiyotlari va g'oyalari bugungi kunga ham to'g'ri keladi Xususan, "Ko'p asrlik tariximiz shundan dalolar beradiki, - deya ta'kidlaydi Islom Karimov, eng murakkab davrlarda ham xalqimizning mushkul sinovlardan o'tishi, hayotning turli to'fon va bo'ronlariga mardona bardosh berib, qaddi-qomatini tik tutib yashashga katta madad baxsh etadigan kuch-yuksak ma'naviyat na adolatga intilish tuyg'usi bo'lgan. Burhoniddin Marg'inoniy asarlarining mohiyati bo'lmish adolat tuyg'usi, o'z davrinig huquqiy mezonlari asosida yashash, o'zganing mol-mulkiga ko'z olaytirmaslik, haromdan hazar qilish, insof va diyonat, mehr-oqibat kabi xalqimizga xos bo'lgan ezgu tushunchalar bugungi kunda ham ma'naviy hayotimiz asoslarini tashkil etadi." Marg'inoniyning "Hidoya" asari esa ana shu tuyg'ularning to'g'ri parvozi uchun yo'l ochib, o'z davriga oid huquqiy masalalarni ixcham, tushunarli, soda va muhumi har qanday tabaqadagi odamning

anglashi oson bo'lgan uslubda ham juda keng miqyosida tadqiq etish bilan ajralib turgan. Huquqiy masalalardagi ayrim muammolar bo'yicha yechimlar bo'lmagan yoki ularning yechimlarining murakkab uslublari amal qilgan va bu murakkablik nafaqat oddiy aholi balki ilmdan yaxshi xabardor odamlar uchun ham qiyinchilik tug'dirgan bir zamonda Marg'inoniyning "Hidoya" asari barchaning ayni muddaosi sifatida maydonga kelgan va juda tez tarqalgan edi. Shu jihatdan ham uning nafaqat Markaziy Osiyoda balki butun musulmon olami madaniyatining rivojlanishida ta'siri katta bo'lgan.

Mustaqillik yillaridan yurtimizdan etishib chiqqan ushbu allomalarning tavallud kunlari mamlakat miqyosida nishonlandi va nishonlanmoqda. Chunki bu allomalar bu o'lkaning shuhratini butun dunyoga yoydilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I. A. XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari. - T.: O'zbekiston, 1997.
2. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yoq. - T.: SHarq, 1998.
3. O'zbekistonning Yangi tarixi. 1-jidl. – T., 2000.
4. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 12-jild. – T., O'zMU, 2006.
5. Bahodirov R. Abu Abdulloh al-Xorazmiy va ilmlar tasnifi tarixidan. - T.: O'zbekiston, 1995.
6. Jalilov S. Imom al-Buxoriy haqida suhbatlar // Fan va turmush. – 1998. -№5.
7. Imom Ismoil al-Buxoriy. Hadislar. - T.: Sharq, 1992.
8. Irisov A. Hakim ibn Sino. - T.: 1990.
9. Ma'naviyat yulduzlari. Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar. - T.: 1999.
10. Sagdulaev A., Aminov B., Mavlonov O'., Norkulov N. O'zbekiston tarixi: davlat va Jamiyat taraqqiyoti. – T. Akademiyasi, 2000.
11. Saitov Ye., Saidov A. Ahmad al-Farg'oniy buyuk matematik // Fan va Turmush. 1998. -№5.
12. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. - T.: 1997.
13. Xayrullayev M. O'rta Osiyoda ilk uyg'onish davri madaniyati. - T.: Fan, 1994.

14. Qodirov A. O'rta Osiyoda medisining paydo bo'lishi. - Toshkent: 1990.